

QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATLARINING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI

Jabborov Temurbek Musurmonqul o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
2-bosqich 204- guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolda eng og'ir jinoyatlardan biri bo'lgan qasddan odam o'ldirish va inson hayotiga suiqasd qilish haqida so'z boradi. Qasddan odam o'ldirish eng og'ir jinoyatlardan ekanligi, ham diniy ham qonun tomondan taqiqlanganligi, bu uchun juda katta jazo borligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Suidsit, qasddan odam o'ldirish, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish.

Kirish:

Inson huquqlariva asosiy huquqlarini himoya qilish tug'risidagi konvensiyada, Fuqarolik va siyosiy huquqlar tug'risidagi xalqaro paktda yashash huquqi tug'ilgan paytdan boshlab vujudga keladigan tabiiy va daxlsiz huquq ekanligi e'tirof etilgan. Yashash huquqi inson hayoti xavf ostida qolmasligi uchun barcha sharoitlarni yaratishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning inson huquqlari buyicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida "Inson huquqlari yulida harakatga da'vat" tashabbusini ilgari surib, insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim urinda turadi deb ta'kidlab o'tdilar. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlar, avvalo inson huquqlari va manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgani, aynan "inson qadri uchun tamoyili asosida" amalga oshirilayotgani ko'rsatib o'tilgan. Bosh qomusimiz bo'lgan konstitutsiyamizda yashash huquqi har bir insoning ajralmas huquqidir, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi qat'iy belgilangan.

Asosiy qism:

So'ngi yillarda qasddan odam o'ldirish jinoyatlari ko'payib borayotgani hech birimizga sir emas. 2022-yil davomida 422ta qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilgan. Ushbu jinoyatni sodir etganlarning 86% erkaklar, 14% ayollar tashkil etadi. Jinoyat sodir etgan shaxslarni yoshlari kesimida tahlil qiladigan bulsak 18 yoshgacha bulganlar 6% , 18-25 yoshdagilar 34% ni , 25-40 yoshgacha bulganlar 38% ni , 40 yoshdan yuqori bulganlar 22% ni tashkil etadi. Tugallanmagan o'rta va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar 92% ni , oliy ma'lumotga ega bulganlar 8% jinoyat sodir etgan shaxslar hisobiga tug'ri keladi. Jinoyatchilarning 65% hech qayerda ishlamaydi , 23% vaqtinchalik mehnat bilan shug'ullanadi , 12% doimiy ish joyiga ega bulganlar. Hududlar buyicha tahlil qiladigan bulsak, eng ko'p qasddan odam o'ldirish jinoyatlari Toshkent viloyati birinchi o'rinda , Samarqand viloyati , Toshkent shahri , Andijon viloyati , Qashqadaryo viloyati keying o'rinlarda turadi . Shaharlarda 44% , qishloqlarda 20% , tuman va boshqa joylarda 36% jinoyatlar sodir etilgan. Bosqinchilik natijasida 35% , maishiy turmush sohasida 28% , bezorilik natijasida 16% , boshqa sabablar tufayli 20% qasddan odam o'ldirish jinoyatlari sodir etilgan. Jinoyatlarning

42% yaqin qarindoshlar , 9% qo'ni qo'shnilar o'rtasida , , 35% er-xotin , aka-uka, ota-ug'il o'rtasida sodir etilganligi milliy an'analarimiz va oilaviy qadriyatlarimizga mutlaqo ziddir.

Qasddan boshqa kishini hayotdan mahrum qilish odam o'ldirish deb e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 97-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, ushbu jinoyatning obyekti o'zga shaxsning hayoti hisoblanadi. Jinoyatning obyektiv tomoni o'zga shaxsni huquqqa xilof ravishda hayotdan mahrum qilishdan iborat. Jinoyatning subyektiv tomoni aybning qasd shakli bilan tavsiflanadi. Jinoyatning subyekti 14 yoshga tuglan jismoniy shaxsdir.

Odam o'ldirish jinoyati moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi. JK ning 97-moddasi 2-qismida og'irlashtiruvchi holatlar ko'rsatilgan. Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini sodir etganligi uchun eng og'ir jazo o'n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu jinoyatlarning asosiy sodir etilish sabablari quyidagilardan iborat; -
Spirtli ichimliklar va psixotrop moddalarni iste'mol qilish. Sodir etilgan jinoyatlarning aksariyat qismi spirtli ichimliklar va psixotrop moddalarni iste'mol qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan.

-Oilaviy munosabatlardagi kelishmovchiliklar. oilada er-xotin va yaqin qarindoshlar o'rtasida rashk , meros talashish , qarz oldi berdisi kabi arzimagan sabablar tufayli qon-qarindoshlar bir-birini o'ldirib quymoqda.

-Jinoyat sodir etganlarning muntazam mehnat bilan shug'ullanmasligi. Tahlillar natijasiga qaraydigan bo'lsak jinoyat sodir qilganlarning yarmidan ko'pi ishsizlar hissasiga tug'ri keladi.

-Ilgari sudlangan shaxslarning yana jinoyat sodir etishlari. Jinoyat sodir etgan shaxslar jazo muddatini o'tab chiqib tug'ri yulga kirib, jamiyatda o'z o'rnini topish o'rniga qayta jinoyat sodir etayotganligi.

-Fuqarolarning e'tiborsizligi va loqaydligi oqibatida jinoyat sodir etilishi. Shu vaqtgacha sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining ayrim turlari jamoat joylarida , aholi gavjum bo'lgan joylarda bezorilik , bosqinchilik kabi jinoyatlar sodir etilayotgan vaqtda sodir etilgan. Odamlarning befarqligi yoki bu holatlarga etibor bermasligi jinoyatlarni sodir etilishiga imkon bergan.

-Jinoyat sodir etishga moyil, salbiy xulq-atvordagi shaxslar bilan ishlash tizimining yetarli darajada yulga quyilmaganligi. Xulq-atvori , o'zini tutishi , salbiy harakatlari orqali jinoyat sodir etishga moyil ekanligi namayon bo'layotgan shaxslar bilan ishlash, nazorat qilish tug'ri yulga solish ishlari nomiga yoki xo'ja kursinga amalga oshirilmoqda.

Xulosa: O'zbekiston respublikasi prezidentining 2018-yil 27-iyulagi "Jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi ma'suliyatini oshirish" masalalariga bag'ishlangan video selektor yig'ilishida "Agar hamma birdek jon kuydirib oilalardagi muammolardan to'liq xabardor bulib, ularni hal etishga kumaklashgan , jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi bugun natijalar umuman boshqacha bular edi. Afsuski jinoyatchilikka qarshi kurashish huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning ishi ekanligi haqidagi skicha qarash bugungi kunda ham saqlanib qolayotganligi xavotirga solidi" deb ta'kidlab o'tganlar.

Spirтли ichimliklar va psixotrop moddalar iste'mol qilishga moyil bo'lgan shaxslarga mahalladagi Yoshi kata ,obro'li fuqarolarni biriktirish.Hafta yakunida ularni mahalla fuqarolar yig'inlarida muhokama qilsh orqali tug'ri yo'lga qaytarish.

Mahalladagi notinch oilalar bilan ishlash buyicha mahalla fuqarolar yig'ini raisining oilaviy masalalar buyicha ishlovchi psixologlar lavozimini joriy etish.

Doimiy mehnat bilan band bulmagan fuqarolarning bandligini ta'minlash buyicha chora-tadbirlarni kuchaytirish. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan xavfsiz va tartibli mehnat migratsiyasiga jalb qilish. Xorijiy tillarni o'rgatib , chet davlatlardagi yuqori daromadli ishlarga taklif qilish. It va Axborot texnologiyalari sohasidani qisqa muddatda o'rgatish orqali uyidan turib foydali va daromadli kasblarga jalb qilish.

Ilgari sudlanganlar, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod etilgan shaxslarning jamiyatga faol kirishib ketishi , ishga joylashib tug'ri yulga qaytishi uchun ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kerak.

Har oyda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan respublika hududida sodir etilayotgan jinoyatlar haqida hisobot taqdim etib , fuqarolarni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish , ularningf huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish buyich targ'ibot va tashviqotlarni amalga oshirish.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson hayotiga suiqasd qilish, qasddan odam o'ldirish kabi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan ekanligi hamda ushbu jinoyatlar o'ta o'g'ir jinoyatlar turiga kirishi, buning uchun o'g'ir jazo berilishi haqida, shuningdek inson hayotini faqatgina alloh tomonidan olinishi, boshqa bir inson tomonidan olinishi mumkin emasligi buning uchun dinda ham o'g'ir jazo belgilab qo'yilganligini bilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekistob Respublikasi Jinoyat kodeksi